

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JURAYEV JASURBEK BEGMATOVICH

**TOLANI IFLOSLIKLARDAN AEROMEXANIK USULDA TOZALASHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundariyasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on technical sciences**

Jurayev Jasurbek Begmatovich

Tolani iflosliklardan aeromehanik usulda tozalashni
takomillashtirish..... 3

Жураев Жасурбек Бегматович

Совершенство аэромеханической очистки волокна от
загрязнений..... 23

Juraev Jasurbek

Improvement of aeromechanical cleaning of fiber from
pollutions..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JURAYEV JASURBEK BEGMATOVICH

**TOLANI IFLOSLIKLARDAN AEROMEXANIK USULDA TOZALASHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.4.PhD/T6226 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimov Sherqul Shergoziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matismailov Saypila Lolashbayevich
texnika fanlari doktori, professor

Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 21 may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (295-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 7 may kuni tarqatildi.
(2026 yil 7 may 295-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


S.L.Matismailov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar rais o'rinbosari, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida paxta tolasidan tayyorlangan mahsulotlar hajmi yetarli darajada yuqoriligi saqlanib kelmoqda. Paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblangan Xitoy, Hindiston, Braziliya, AQSH, Pokiston kabi mamlakatlar o'z o'rni va nufuzini saqlash uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot iste'mol xususiyatlarini oshirish va ularning bozor konyukturasiga mosligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar olib bormoqda. Bu esa jahon bozorida raqobat muhitini kuchaytirib, mahsulot sifatini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan, paxta sanoati korxonalarini yuqori unumdorlikka ega zamonaviy texnika va innovatsion ishlanmalar bilan ta'minlash sohaning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasining asosiy bosqichi sifatida, paxta tolasini chigitidan ajratish (jinlash) jarayoni, texnika va texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishda, jumladan, paxtani jinlash jarayoni samaradorligini oshirishning asoslari yaratilmoqda, ilmiy hajmdor, avtomatlashgan, shuningdek, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot tabiiy ko'rsatkichlarini saqlab qolish va tannarxini pasaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mazkur sohani rivojlantirishning asosiy omillari, paxta tolasini chigitidan ajratish jarayonida tolaning dastlabki tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlash, jarayon energiya sarfini kamaytirish imkoniyatini beradigan, mahsulot ko'rsatkichlarini boshqara oladigan ixcham texnologiyalarni, tola tarkibidagi iflos aralashmalarni ajratish imkoniyatiga ega konstruksiyalarini yaratishga zarurat yuqori hisoblanadi.

Respublikamizda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, paxta tozalash sanoatini modernizatsiya qilish asosida ichki va tashqi bozor uchun chiqarilayotgan paxta mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, uning raqobatbardoshligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, ...yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish"¹ vazifasi belgilab berildi. Ushbu vazifalarni bajarishda arrali tola ajratish jarayonida imkon qadar tolani tozalashga ega konstruksiyasini ishlab chiqish, shuningdek, jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi samarali texnologiyani yaratish va uni ishlab chiqarishga joriy etish sanoat taraqqiyoti uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023- yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 21-yanvardagi PQ-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-martdagi 253-son “Paxta va to‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini klasterlarda tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxta tolasini ajratish (jinlash) texnologik mashinalarini takomillashtirish va tadqiq etish bilan xorijda S. Aslam, N. Soomro, D.M. Alberson, S.E. Hughs va boshqalar tomonidan samarali konstruksiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Respublikamizda jinlash jarayonida tolaning sifatiga salbiy ta’sirlarni bartaraf qilish, tozalash samaradorligini oshirish ustida Sh.Sh. Xakimov, E.T. Maqsudov, G.I. Mirosnichenko, A.Y. Lugachev, R.V. Korabelnikov va boshqa olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari paxta tolasini chigitidan ajratish, tozalash jarayoni va uskunalarni takomillashtirishda ayrim masalalar, xususan, arrali jinlarda tola ajratish jarayonini takomillashtirish, tolani tozalash jarayonida aerodinamik va aeromexanik usullardan foydalanish asosida mahsulotning tabiiy sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga erishilgan. Shu bilan birga arrali jin va tola tozalash tizimidagi qo‘shimcha sohalardan samarali foydalanilish imkoniyatini o‘rganishni davom ettirish kerak.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №0T-A3-09 “Paxtani jinlash jarayoni samaradorligi yuqori bo‘lgan resurstejamkor yangi texnologik uskunasi ishlab chiqish” loyiha mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtani jinlashdan so‘ng tolani uzluksiz aeromexanik tozalash texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta tolasini ajratilgandan so‘ng uni iflosliklardan uzluksiz tozalash texnologiyasi yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish;

tolaning tozalovchi kolosniklar bilan aeromexanik ta'sirini nazariy o'rganish asosida qo'shimcha tozalash omillarini aniqlash;

arrali jin va tozalagich o'rtasidagi quvurda tolaning harakatlanish davrida tozalash imkonini beruvchi aeromexanik texnologiyani ishlab chiqish;

izlanishlar natijasida yaratiladigan texnologiyani ishlab chiqarishda sinov tajribalarini o'tkazish va ratsional ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida paxtani arrali jinlash va tolani tozalash texnologik jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti paxta tolasi uni tozalashni tadqiq qilish usullari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statik va dinamik modellashtirish, to'liq faktorli eksperimentlar, kuzatish, o'lchash, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida ratsional ko'rsatkichlarni aniqlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtadan tola ajratilgandan so'ng uning kolosniklar bilan ta'sirini tahlil qilish asosida tozalovchi kolosniklarni taroqsimon shaklda o'zgartirilib takomillashgan tozalash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tolani arradan havo yordamida ajratgunga qadar uning takomillashgan kolosniklar bilan ta'sir kuchlari o'rtasidagi bog'lanishlari qurilgan harakat differensial tenglamalarini yechish asosida olingan;

jin va tozalagich o'rtasidagi quvurda tolaning sirt yuzasi bilan ta'sirlashish kuchlari va tolalar oqimini to'siqlarga urilishi natijasidagi harakati trayektoriyasi undan ajralib chiqayotgan iflosliklar massasi o'zgarishini tahlil qilish asosida aniqlangan;

tolani tozalash samaradorligining arra va kolosnik orasidagi masofa, yon tomondagi masofa hamda kolosniklarni arrali silindr o'qiga joylashish burchagiga bog'lanishining regression tenglamalari qurilgan, ularning ratsional qiymatlari-masofalari 3 mm, joylashish burchagi 45° bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinlash sohasidan so'ng tola harakatlanishining nazariy aniqlangan ko'rsatkichlari va tajriba o'tkazish qurilmasida olib borilgan tajriba-sinov natijalari asosida arrali jinda tolani qo'shimcha tozalash texnologiyasi yaratilgan;

jin va tola tozalagich o'rtasidagi quvurda tolani tozalash imkonini beruvchi takomillashgan aeromexanik tozalagich ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi arrali jinda tolani tozalash jarayonining nazariy tadqiqotlari va olingan natijalarining amaliy ko'rsatkichlar bilan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda zamonaviy usullar va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarning ishlab chiqarishga samarali joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yaratilgan matematik modellarning, xususan, jinlash jarayonida tolani tozalashning nazariy yo'nalishlarini muayyan darajada rivojlantirishga xizmat qilishi hamda jinlashdan so'ng va tozalagichga qadar tolalarning tabiiy xususiyatlari

saqlanishini ta'minlovchi takomillashgan texnologiyaning yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot yo'nalishi paxta tozalash sanoatining real talabi asosida amalga oshirilgani, natijada jin va tola tozalash tizimining resurstejamkor texnologiyasi va uskunalari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Arrali jinlashda aeromexanik usulda tozalashning resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan arrali jin uskunasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tizimidagi "Real Agro Cotton" paxta tozalash korxonasi joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2026-yil 15-yanvardagi 02/06-69-son ma'lumotnomasi). Natijada taklif etilgan takomillashtirilgan arrali jin va quvur qo'llanilganda tolaning tabiiy sifat va miqdor ko'rsatkichlari saqlanib, ishlab chiqarilayotgan tola tarkibida nuqson va iflos aralashmalarni tozalash samaradorligi 6.4 % gacha oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish chop qilingan, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 2 ta maqola respublika va 3 ta maqola chet el jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, foydali model uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxtani dastlabki ishlashda tolaning iflosliklardan tozalash jarayoni tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida paxta tolasini iflosliklardan tozalashning mahaliy va xorijiy texnika va texnologiyasi tahlili, shuningdek, paxta tolasini tozalash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahliliy sharhi keltirilgan.


Mavjud arrali jinlash texnika va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili natijalari paxta tolasini arra tishlaridan ajratib olishga va tozalashga xizmat qiladigan zamonaviy resurstejamkor va paxta

tolasining tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi qurilmalarni yaratish muammolari yetarli darajada o‘rganilmaganligi aniqlandi. Arrali jinlarning ish unumdorligi arra tishlariga ilashgan tolalarni havo oqimi yordamida to‘liq ajratib olmasligi va tozalamasligi sababli tola jin ishchi kamerasiga yana qaytib kirishi jarayon unumdorligining pasayishiga hamda paxta tolasining tabiiy sifat ko‘rsatkichlari yomonlashuviga olib kelishi aniqlandi. Arrali jinning tola tozalash qismidagi qo‘llanilgan barcha qurilmalarning texnik va texnologik parametrlari to‘liq optimallashtirilmaganligi va tolni tozalash vaqtida ularning tabiiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etuvchi omillarga etibor berilishi lozimligi belgilandi.

Paxta tolasini kafolatli tozalash uchun qo‘llaniladigan moslamalar va bunda sarf bo‘ladigan energiyani kamaytirish uchun jinlash va arra tishlaridagi tola tutamlarini tozalash jarayonlarini yanada chuqur o‘rganish va tahlil qilish orqali resurstejamkor tola tozalash qurilmasi konstruksiyasini ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Paxta tolasini iflosliklardan tozalashning aeromexanik texnologiyasini yaratish bo‘yicha nazariy izlanishlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida Arrali jinlash mashinasida paxta tolasini iflosliklardan tozalash jarayonini tadqiqi, paxta tolasining arrali silindrdan ajralish sohasida harakatlanishi va undan iflosliklarni ajratish jarayonining nazariy tadqiqotlari keltirilgan.


Arrali jinning o‘zida samarali tozalash uchun takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnik sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm). Sxemaga asosan tolni tozalash zonasida kolosniklar soni, ularni arrali silindr radiusiga nisbatan joylashishi ko‘rsatilgan.



1-rasm. Takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikni sxemasi

Dastavval ishchi kamera (1) dan arra tishlari yordamida tashqariga olib chiqilgan tola oqimi (5) ni birinchi ajratuvchi kolosnik (3) ga yetib kelgunga qadar oqimdan chiqindiga tolaning ajralishini keskin kamaytirish uchun ishchi kameradagi arrali disk va ajratuvchi kolosniklar orasidagi masofa L ni nazariy tomondan o‘rganamiz (2- rasm).

Bu yerda L - arrali disk bilan ajratuvchi kolosnik oraliq masofasi. Kolosniklar $L = 2,5 \div 3,0$ mm bo‘lganda chiqindiga iflos aralashmalar bilan tola ajralishi keskin kamaygan. Shuning uchun nazariyada qilishda oraliq masofa diapazoni $L = 2,0$ mm dan 6,0 mm gacha olindi.



2-rasm. Arrali silindr tishlaridagi tolalarning tashqi kuchlar ta'siridagi harakati sxemasi

Bu yerda $R = kmv$ havoning qarshilik kuchi, k -qarshilik koeffitsiyenti, m -tola massasi, v -tolalar tezligi.


Tolalar oqimi arrali silindrdagi arra tishlari yordamida harakatlanib, kolosnikka kelib urilgunga qadar harakatini differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m\ddot{x} = P + R \quad (1)$$


bu yerda P -tolaning og'irlik kuchi, $R = -mk\dot{x}$ ga teng.

$$m\ddot{x} = P - mk\dot{x} \quad (2)$$

(2) differensial ifodadan tolalar oqim harakatini OX va OY o'qlari bo'yicha ifodalaymiz.



a)



b)

3-rasm. Tolalar oqimining kolosnik bilan o'zaro ta'siri natijasidagi trayektoriyasini a) dastlabki va b) ikkinchi kolosnikning og'ish burchagi turli xil 1 - $\alpha_1 = 35^\circ$; 2 - $\alpha_2 = 45^\circ$; 3 - $\alpha_3 = 55^\circ$ qiymatlarida vaqtga bog'liqligi

Arrali silindrdagi arra tishlarida harakatlanayotgan tolalar oqimining kolosniklar bilan o‘zaro ta’sirida chegaraviy shart qo‘yib ifodalaymiz. $t = \tau$ vaqt $x = L$ masofani bosib o‘tadi. Bunda (3) tenglik quyidagicha aniqlanadi:

$$L = \frac{1}{k^2} (g + kv_0 \cos \alpha) (1 - e^{k\tau}) - \frac{g}{k} \tau \quad (3)$$


Tenglikdan foydalanib, arrali silindr tishlarida harakatlanayotgan tolalar oqimini kolosniklarga urulib, taralib iflosliklardan tozalanishida bosib o‘tgan yo‘li trayektoriyasini Maple dasturi orqali grafiklarda tahlil ko‘rinishi keltirilgan (3-rasm).

Tolalar oqimini arrali silindrdagi arra tishlari yordamida harakatlanishidan ajratuvchi kolosniklar bilan orasidagi masofa tahlili keltirilgan. Bunda arrali disk bilan ajratuvchi kolosniklarning old va yon tarafidagi masofalarni to‘g‘ri tanlash, hamda shu orqali tolalarni ulyuk va iflos aralashmalardan samarali ajralishi ta‘minlanib, tolani iflos aralashmalar bilan chiqindiga ajralish miqdorining keskin kamayishi, tolani shkastlanish holatlari grafiklarda keltirilgan. Bunda tolalarni arrali silindrdagi arrali disk bilan kolosnik orasidagi masofani $L = 3 \text{ mm}$ kattalikda olinishi, ajratuvchi kolosniklarning qiyalik burchagi $\alpha_2 = 45^\circ$ ga teng bo‘lishi, tolalarni ajratuvchi kolosniklar bilan o‘zaro ta’sirining bir tekisligini ta‘minlab, chiqindiga tola ajralishini keskin kamaytiradi. Natijada tolani taralish jarayoni yaxshilanishi hisobiga oqimdagi toladan ulyuk va iflos aralashmalarni ajralishi jadallashib, tozalash samaradorligi yaxshilanadi.

Kolosniklar bilan o‘zaro ta’siridagi trayektoriya tenglamasini aniqlashda x ni y ga bog‘liqlik ifodasini hosil qilamiz.

$$x = \frac{g + kv_0 \cos \alpha}{kv_0} \cdot y + \frac{g}{k^2} \ln \left(1 - \frac{ky}{v_0 \sin \alpha} \right) \quad (4)$$

Tenglamadan tolalarni birinchi ajratuvchi kolosnikkacha bo‘lgan oraliq masofalarni to‘g‘ri tanlashdagi tahlili Maple dasturi orqali 4-rasmdagi grafikda keltirilgan.



4-rasm. Tolalar oqimining OX o‘qi bo‘ylab siljishi, ularning uchinchi kolosnik bilan o‘zaro ta’sir burchagining turli 1 – $\alpha_1 = 35^\circ$; 2 – $\alpha_2 = 45^\circ$; 3 – $\alpha_3 = 55^\circ$ qiymatlariga bog‘liqligi

Yuqoridagi grafik tahlilidan tolalarni kolosniklar bilan o‘zaro ta’sirida arrali silindr bilan kolosniklar orasidagi masofa 3 mm ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, tolalarni bir tekisda uzatish jarayonini amalga oshirishda tolalar oqimining uzatish burchagi $\alpha_2 = 45^0$ qiymatida 3 mm dan oshib ketmasligi trayektoriyalarda keltirilgan.

Takomillashtirilgan arrali jin+tola tozalagich ishlab chiqilib, paxta tozalash korxonasida tajribalar o‘tkazildi. Unda paxta tolasini jinlashdan so‘ng arrali silindrdan ajralish sohasidan chiqish jarayonida tozalash jarayoni o‘rganildi (5-rasm).



5-rasm.
Takomillashtirilgan
arrali jin

Tajriba 3 marta qayta takrorlash orqali amalga oshirildi va natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

Tola tarkibidagi iflosliklar miqdorini aniqlash

№	Og‘irligi, g	Ifloslik, g	Tola, g	Uchib ketgan zarrachalar, g	Tolaning ifloslik ko‘rsatkichi %
1	100	3.36	96.59	0.05	3.41
2	100	3.33	96.61	0.06	3.39
3	100	3.37	96.58	0.05	3.42

To‘liq omilli tajribaning kiruvchi omillarini asoslaymiz. Dastlab ikkita sathli ($k = 2$), uch omilli tajriba rejasini tuzamiz, bunda birinchi omil X_1 –arra va kolosnik orasidagi masofa, bunda arra tishlaridagi tolalarni kolosniklarga urilishi hisobiga tarkibidagi ifloslik va ulyuklarni ajralib chiqishini tezlashishiga yordam beradi. Arra tishlariga ilashgan tolalarning uzunliklari ilashishiga qarab o‘zgarib turadi. Shundan kelib chiqib, arra va kolosniklar orasidagi masofa quyi chegarasi 2 mm, yuqori chegarasi 6 mm olindi. Ikkinchisi X_2 –arra bilan kolosniklarning yon tarafdagi masofasi, bunda arra tishlariga ilashgan tolalarni yon tarafdin ham qo‘shimcha tozalash imkoniyatini yaratib beradi. Shundan kelib chiqib arra bilan

kolosniklarning yon taraflaridagi masofani 2 mm, yuqori chegarasini 6 mm deb qabul qilamiz. Uchinchi X_3 –kolosniklarni arrali baraban o‘qiga nisbatan joylashish burchagi, bunda arrali barabanning tishiga ilashgan tolalar kolosniklarga kelib urilishi hisobiga ajratib olingan ifloslik va ulyuklarni ishchi maydondan tez chiqib ketishi va qayta tolaga aralashib ketmasligini ta’minlab beradi. Shuning uchun kolosniklarni arrali baraban o‘qiga nisbatan joylashish burchagi quyi chegarasini 35^0 , yuqori chegarasini 55^0 qilib tanlab olindi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslangan holda kiruvchi faktorlarning o‘zgarish oraliqlari belgilab olindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Kiruvchi omillar va ularning o‘zgarish oraliqlari

№	Faktoring nomi, belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktoring haqiqiy qiymatlari			O‘zgarish oralig‘i
			-1	0	+1	
1	Arra va kolosnik orasidagi masofa, mm	X_1	2	4	6	2
2	Arra bilan kolosniklarning yon tarafdagi masofa, mm	X_2	2	3	4	1
3	Kolosniklarning arrali baraban o‘qiga nisbatan joylashish burchagi, gradus	X_3	35^0	45^0	55^0	10

Regressiya tenglamasini aniqlash uchun javoblar bo‘yicha har bir funksiya uchun ikkita sathli ($k = 2$) uch omilli tajribaning matritsasi tuzildi. \bar{y}_{ui} , va \bar{z}_{ui} orqali m parallel tajribalarda olingan, har biri n tajriba aniqlangan tozalash samaradorligi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti uchun tegishli javoblar qiymatlari belgilandi. Shunday qilib, $\bar{y}_{ui} = \frac{1}{n} \sum_{l=1}^n y_{uil}$, ($l = 1..m$) ikkita tajriba o‘tkazishda ko‘rib chiqildi. Har bir variantda to‘plamlar soni $N_2 = N = 8$ da $m = 2$ deb ta’minlangan va ularning qiymatlari 3- jadvalda keltirilgan.

3-jadval

To‘la omil 2^3 tajribaning standart matritsasi

№	Omillar oralig‘i			Y_r – Tozalash samaradorligi, %					
	X_1	X_2	X_3	y_{i1}	y_{i2}	y_{i3}	y_{oirt}	S_u^2	S_y
1	-	-	-	23,8	23,6	23,9	23,76	0,01333	0,115
2	+	-	-	20,9	20,7	21,2	20,93	0,02333	0,153
3	-	+	-	22,8	22,9	22,9	22,86	0,04000	0,200
4	+	+	-	16,9	16,7	16,5	16,7	0,01000	0,100
5	-	-	+	23,9	23,8	23,9	23,86	0,04333	0,208
6	+	-	+	22,6	22,8	22,9	22,76	0,04333	0,208
7	-	+	+	21,3	21,7	21,6	21,53	0,01000	0,100
8	+	+	+	18,8	18,9	18,6	18,76	0,02333	0,153

b_0	b_1	b_2	b_3	b_{12}	b_{13}	b_{23}	b_{123}
21,296	0,1375	0,2375	0,32083	0,046	-0,154	-0,138	-0,113

Shunday qilib, regressiya tenglama ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$Y_r = 21.296 + 0.1375 \cdot X_1 + 0.2375 \cdot X_2 + 0.32083 \cdot X_3 - 0.046 \cdot X_1 \cdot X_2 - 0.154 \cdot X_1 \cdot X_3 + 0.134 \cdot X_2 \cdot X_3 - 0.113 \cdot X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \quad (5)$$

Olingan har bir javob uchun tajriba natijalari statistik qayta ishlandi. Olingan regressiya tenglamasi murakkab bo‘lganligi sababli Fisher mezonidan foydalanib, $\bar{y} = F(X_1, X_2, X_3) = const$ sirtlar o‘rniga chiziqli regressiyani qabul qilamiz:

$$Y_r = 21,3 - 0,14 \cdot X_1 + 0,24 \cdot X_2 + 0,32 \cdot X_3 - 0,15 \cdot X_1 \cdot X_3 - 0,14 \cdot X_2 \cdot X_3$$

Matematik hisoblashlar orqali olingan tenglamalarning adekvatligi model va tajriba natijalarining mosligini ko‘rsatdi.

Regressiya tenglamasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, arra va kolosniklar orasidagi masofaning 2 mm dan 6 mm gacha oshishi bilan asosiy omillarning $X_2 = 2$ mm, $X_3 = 35^0$ minimal qiymatlari bilan tozalash samaradorligi 23,47 % dan 21,7 % gacha kamayib boradi. Asosiy omillarning o‘rtacha qiymatlarida esa mos ravishda 22,95 % dan 20,9 % gacha va 22 % dan 18,8 % gacha o‘zgaradi. Asosiy omillarning maksimal qiymatlarida 21,5 % dan 17,5 % gacha kamayishi aniqlandi.

Takomillashtirilgan kolosniklarning tozalash samaradorligini arrali silindr arralari va kolosniklarning yon tarafidagi masofaga bog‘liqligi keltirilgan. Arrali silindr va kolosniklarning yon tarafidagi masofaning 2 mm dan 4 mm gacha oshishi bilan asosiy omillarning $X_1 = 2$ mm, $X_3 = 35^0$ minimal qiymatlari bilan tozalash samaradorligi 22,70 % dan 20,90 % gacha kamayib borishini ko‘rishimiz mumkin. Asosiy omillarning o‘rtacha qiymatlarida mos ravishda 23,1 % dan 21,6 % gacha va 22,2 % dan 19, % gacha o‘zgaradi. Asosiy omillarning maksimal qiymatlarida 21,56 % dan 16,5 % gacha kamayib borishini ko‘rishimiz mumkin.

Takomillashtirilgan kolosniklarning tozalash samaradorligini kolosniklarni arrali silindr o‘qiga nisbatan joylashish burchagiga bog‘liqligi keltirilgan. Kolosniklarni arrali silindr o‘qiga nisbatan joylashish burchagi 35^0 dan 55^0 gacha oshishi bilan asosiy omillarning $X_1 = 2$ mm, $X_2 = 2$ mm minimal qiymatlari bilan tozalash samaradorligi 22,8 % dan 23,2 % gacha oshadi. Asosiy omillarning o‘rtacha qiymatlarida mos ravishda 22,1 % dan 21,95 % gacha va 20,9 % dan 19,4 % gacha o‘zgaradi. Asosiy omillarning maksimal qiymatlarida 19 % dan 16,5 % gacha kamayishi aniqlandi.

Arra va kolosniklar orasidagi masofa arra tishlaridagi tolalarni tozalash jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi. Arrali jinda tolani tozalash samaradorligini arra bilan kolosniklar orasidagi masofani o‘zgartirish orqali sozlash mumkin. Kolosniklar bilan arra orasidagi masofaning kamayishi tola shikastlanishini oshishiga, masofaning kattalashishi esa tola tarkibidagi iflos aralashmalar va ulyuk ajralish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Arrali silindr bilan

kolosniklarning yon tarafidagi masofaning minimal qiymatida arra tishlaridagi tolalarning shikastlanishi oshib ketadi, maksimal qiymatida esa tola tarkibidagi iflos aralashmalardan tozalanish jarayoni bir oz pasayishiga olib keladi va natijada arrali jinning tozalash samaradorligi pasayadi. Bu masofaning kamayishi va ko'payishida tolaning sifat ko'rsatkichlari yomonlashishi tendensiyasi aniqlandi. Kolosnikni arrali silindr o'qiga nisbatan joylashish burchagini o'rtacha qiymatida jinning tozalash samaradorligining ratsional qiymatiga erishiladi. Bu omilning oshishi tolaning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi.


To'liq faktorli eksperimentni o'tkazishda asosiy vazifa kiruvchi omillarning chiquvchi omilga ta'sirini aniqlashdir. Yuqoridagi barcha parametrlar va ularning bir biriga nisbati jinning tozalash jarayoniga ta'sir qiladi. Kiruvchi omillarning shunday parametrlarini tanlash kerakki, natijada tozalash jarayoni samaradorligi maksimal darajaga yetsin. To'liq faktorli tajriba davomida olingan natijalarni tahlil qilish tanlangan asosiy omillarning quyidagi qiymatlarini tavsiya etishga imkon beradi:

- arra va kolosniklar orasidagi masofa -3 mm;
- arra bilan kolosniklarning yon tarafidagi masofa -3 mm;
- kolosniklarni arrali silindr o'qiga nisbatan joylashish burchagi-45°.

Ushbu omillar bilan arrali jinning jinlash jarayonida tolani sifat ko'rsatkichlari saqlanishi va undagi ulyuk ajratish moslamasining tolani tozalash samaradorligi 6,4 % dan yuqori bo'lishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Paxta tolasini iflosliklardan aerodinamik tozalagichning takomillashgan konstruksiyasini tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida paxta tolasini aerodinamik tozalagichning texnologik ko'rsatkichlarini asoslash va paxta tolasini aerodinamik tozalagichda tozalash jarayoni tahlil qilindi.


Paxtani jinlash mashinasidan tola tozalagichga quvurni kirish va chiqish joyi qiya qismida to'liqinsimon to'rli yuza va uning qarshisida aylanuvchi valikdan foydalanish quvurning aerodinamik qarshiligi oshishiga olib keladi. Ammo bu qarshilik havo oqimi va undagi bosimni oshirish orqali bartaraf etiladi. Natijada tolani tashish ishonchliligi pasaymaydi. Takomillashtirilgan tola tozalagich quvurning kirish qismi (1), chiqish qismi (2) va ularni bog'laydigan qiya yuza (3) dan iborat bo'lib, ularning barchasi bunker (4) hamda qiya yuzaning pastki asosiga maxsus takomillashtirilgan to'rli yuza bilan jihozlangan. Jarayondagi havo oqimini nazoratda ushlab va ajratib olingan iflos aralashmalarni ifloslik shnegiga (5) o'tishini ta'minlovchi vakuum klapani (6) o'rnatilgan (6-rasm).



1-tola kiruvchi quvur, 2-tola chiquvchi quvur, 3-qiya yuza, 4-ifloslik bunkeri, 5-ifloslik shnegi, 6-vakuum klapan, 7-to'rtli yuza

6-rasm. Takomillashtirilgan tola tozalagich

To'rtli sirt yuzasiga α burchak ostida to'siqli plastinkalar o'rnatilgan, bu yo'naltirgichlar havoni va tolalarni tola tozalagich tomonga yo'naltirib, tolalarni to'rtli yuzadan o'tib ketishining oldini oladi. Havoni, tola va iflosliklarni birgalikdagi harakatlari 45° burchak ostida o'rnatilgan to'siqqa urilishi natijasida tolalardan iflosliklarni ajratish jarayonini nazariy tahlil qilamiz (7-rasm).



7-rasm. Tolaning takomillashtirilgan quvur sirtidagi harakati sxemasi

Tolalar oqimining to'siqlarga ta'siri natijasidagi harakatini hamda undan ajralib chiqayotgan iflosliklar massasi o'zgarishini harakat tenglamalari orqali aniqlaymiz.

$AB=L$ masofada tolalarning harakatini ifodalaymiz

$$\begin{cases} Y_1 = h \cdot \sin(\sqrt{\frac{g}{2 \cdot l}} \cdot t) \\ X_1 = v \cdot t \end{cases}$$

bu yerda h – doimiy kichik parametri, uning qiymati $h = l \sin\alpha$ ga teng l – har bir to‘siqning balandligi 45° burchak ostida joylashtirilgan.


Tolalarni quvur yuzasi bo‘yicha integrallaymiz:

$$\begin{aligned}
 Q_1 &= \int_0^t w dt = \int_0^t \left[\frac{m}{2} \left(v^2 + \frac{h^2 g}{2l} \cos^2 \left(\sqrt{\frac{g}{2l}} \cdot t \right) \right) - mgh \right] dt = \\
 &= \int_0^t \frac{mv^2}{2} dt + \int_0^t \frac{mgh^2}{8l} dt + \int_0^t \frac{mgh^2}{8l} \cos^2 \left(\sqrt{\frac{g}{2l}} \cdot t \right) dt - \int_0^t mgh dt = \\
 &= \frac{mv^2}{2} \cdot t + \frac{mgh^2}{8l} \cdot t + \frac{mgh^2}{8l} \cdot \frac{\sqrt{2l}}{2\sqrt{g}} \sin \left(2\sqrt{\frac{g}{2l}} \cdot t \right) - mght \quad (6)
 \end{aligned}$$

Demak, quvur sirtida joylashgan to‘siqli planka ta’sirida tola oqimi harakati planka orasidagi masofa va og‘ish burchagining tolalar massasiga bog‘liqlik ifodasi keltirib chiqarildi.


$$Q_1 = \frac{1}{2} m * v^2 * t + \frac{h^2 mg}{8l} * t - \frac{1}{16} h^2 mg \sqrt{\frac{2l}{g}} * \sin \left(2\sqrt{\frac{g}{2l}} t \right) - mght \quad (7)$$

To‘rli sirt yuzasiga to‘siqli plastinkadan o‘tib, bu yo‘naltirgichlar havoni va tolalarni chiqish quviri tomonga yo‘naltirishi natijasidagi harakatini Maple dasturidan foydalanib aralash iflosliklarni toladan ajralishi grafiklarda keltirilgan (8-rasm).



8-rasm. Tola oqimi harakatini to‘siqli plakaning a) turli xil qiyalik 1 – $\alpha_1 = 35^\circ$; 2 – $\alpha_2 = 45^\circ$; 3 – $\alpha_3 = 55^\circ$ burchaklarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi va b) to‘siqli plankalar orasidagi masofalarni turli xil 1 – $l_1 = 10 \text{ mm}$; 2 – $l_2 = 20 \text{ mm}$; 3 – $l_3 = 30 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

Taklif etilayotgan qurilmada tola oqimini havo yordamida iflos aralashmalardan tashish jarayonida to'siqli plankalarga urilishi natijasida iflos aralashmalardan tozalash va tola oqimining titrash jarayoni nazariy tahlil qilingan. Lentadagi tola oqimi harakati 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Tozalagichdagi tola oqimining harakat sxemasi


Tola oqimini havo yordamida uzatishda hosil bo'ladigan tashqi kuchlar natijasidagi harakat differensial tenglamasini tuzamiz:

$$m\ddot{y} = -k_1 \cdot \vartheta - C \cdot y$$

tenglama quyidagicha ko'rinishda hosil bo'ladi. Bu yerda k_1 – qarshilik koeffitsiyenti; A – amplituda; $\frac{k_1}{m} = 2n$ $k = \frac{C}{m}$; C – bikrlilik koeffitsiyenti; α – tebranishlarning boshlang'ich fazasi.

$$y = Ae^{nt} \sin(\sqrt{k^2 - n^2} + \alpha)$$

Tenglama tola oqimining quvurdagi to'siqli plankalarga ta'siri natijasidagi harakatini ifodalaydi. Uning havo oqimi natijasida yuzaga keladigan tebranma harakati va bu orqali tola oqimiga ta'sir qiladigan kuchlar ta'siridagi tola oqimidan iflos aralashmalarni tozalash samaradorligini oshirishdagi harakat tenglamasidan foydalanib, Maple dasturi orqali grafikda tahlillarini keltirib o'tamiz.




10-rasm. Tola oqimini lentadagi OY o'qi bo'ylab harakatini to'siqli plankalar uzunliklarining turli xil 1 – $l_1 = 10$ mm; 2 – $l_2 = 20$ mm; 3 – $l_3 = 30$ mm qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarishi

Tola oqimining lentadagi OX o‘qi bo‘ylab harakatini ifodalovchi tenglikni hosil qilamiz.

$$x = \frac{k(d - p^2 m)}{p(m^2 p^2 + k^2)} + \frac{k p m}{m^2 p^2 + k^2} e^{-\frac{k}{m} t} + \frac{k^2}{m^2 p^2 + k^2} \sin pt - \frac{k d}{p(m^2 p^2 + k^2)} \cos pt$$

Tenglama tola oqimining lentali qurilmada to‘siqli plankalarga ta’siri natijasidagi harakat tenglamasini ifodalaydi. Bu tenglamadan tola oqimi harakatini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlili keltirilgan.




11-rasm. Tola oqimining lentadagi OX o‘qi bo‘ylab harakatining to‘siqli planka balandligining turli xil 1 – $l_1 = 10 \text{ mm}$; 2 – $l_2 = 20 \text{ mm}$; 3 – $l_3 = 30 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi

Tola oqimi harakatini to‘siqli planka uzunliklarining turli xil $l_1 = 10 \text{ mm}$; $l_2 = 20 \text{ mm}$; $l_3 = 30 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Paxta tolasini iflosliklardan aeromexanik tozalagichning takomillashtirilgan texnologiyasining ishlab chiqarish sinovi va iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida takomillashtirilgan aeromexanik tozalagichning sinov o‘tkazish uslubi, aeromexanik tozalagichning takomillashgan konstruksiyasini ishlab chiqarish sinovidan o‘tkazish natijalari va tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etishning iqtisodiy samaradorlik hisobi keltirilgan.

Amaliy va nazariy tadqiqotlar asosida takomillashtirilgan jin va tola tozalagichning ratsional ko‘rsatkichlari tanlab olindi.

Jinlash mashinasidan tola tozalagichga va undan tola chiqishi orqali kondensorga olib boradigan potrubka bilan uzatilish yo‘nalishi yuqoridan amalga oshiriluvchi tozalagichning ishlab chiqarish namunasi tayyorlandi (12-rasm).



12-rasm. Takomillashtirilgan arrali jin+tola tozalagich majmuasi

Tozalashdan oldingi va keyingi paxta xomashyosidan, jindan va takomillashtirilgan tola tozalagichdan keyingi toladan va takomillashtirilgan tola tozalagichning chiqindisidan namunalar olib turildi. Paxta tozalash korxonasi laboratoriyasida tahlil qilindi.

Tajriba sinovlaridan olingan natijalar 4-jadvalda keltirilgan.


4-jadval

Sulton seleksiyali paxta xomashyosining I navida o‘tkazilgan tajriba sinovlari natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Amaldagi arrali jin	Takomillashtirilgan arrali jin
1	Jin lotogidan keyingi paxta, %: iflosligi namligi	1,02	1,02
		8,35	8,35
2	Jinning ish unumdorligi, kg/ arra soat	9,8	9,8
3	Jindan keyingi tola tarkibidagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori, %	3,36	3,13
4	Jinning tozalash samaradorligi	14,8	21,2
5	Tola tozalagichdan keyin tolaning nuqson va iflos aralashmalari, %	2,53	2,32
	shu jumladan: yirik ifloslik	1,08/0,73	1,02/0,69
	ulyuk	0,56/0,44	0,52/0,40
	Toladagi singan chigitlar miqdori	0,51/0,43	0,47/0,39
	Tolali qobiqlar	0,59/0,41	0,53/0,37
	Mayda ifloslik	0,62/0,52	0,59/0,47

4-jadvalda amaldagi va takomillashtirilgan arrali jindagi tolalar tarkibidagi nuqson, iflos aralashmalarning umumiy miqdori hamda nuqsonlarni fraksiyalari bo'yicha farqlari keltirilgan. Ishlab chiqarishdagi arrali jinlardan keyingi tolaning nuqson va iflos aralashmalar miqdori 3,36 % ni, takomillashtirilgan arrali jindan keyin esa 3,13 % ni tashkil qilib, tola tarkibidagi nuqson va iflos aralashmalarning miqdori 1,07 martaga kamayganligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, takomillashtirilgan arrali jinning tozalash samaradorligi ishlab chiqarishdagi mavjud arrali jinning tozalash samaradorligiga nisbatan 6,4% ga yoki 1,43 marta oshganligini, tola tarkibidagi iflos aralashmalar miqdori esa 8,3 % ga yoki 1,09 marta kamayganligi aniqlandi.



1-amaldagi arrali jin; 2-takomillashtirilgan arrali jin

13-rasm. Ishlab chiqarishda o'tkazilgan takomillashtirilgan arrali jin+texnologiyaning tozalash samaradorligi

Takomillashtirilgan arrali jinning tozalash samaradorligi mavjud arrali jinning tozalash samaradorligiga (“Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi” PDI 70 – 2017 da I sanoat navli paxta tolasini uchun 14,4%) nisbatan 6,4 % ga, “Real agro cotton” paxta tozalash korxonasi ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajriba sinovlaridagi jin va quvurning tozalash samaradorligiga solishtirganda 5,27 % ga oshdi.

Tajriba sinovlari boshlang'ich iflosligi 1,02 %, namligi 8,35 % bo'lgan paxta xomashyosining 1-navli Sulton seleksiyasida o'tkazildi.

Takomillashtirilgan arrali jin+texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etilganda tolaning sifat ko'rsatkichi saqlanishi hisobiga 117113,5 ming so'm iqtisodiy samaraga erishildi.

XULOSA

Nazariy va tajriba tadqiqotlari natijalari quyidagi xulosalar uchun asos bo'ladi:

1. Arrali jinlash texnika va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili natijalari paxta tolasini arra tishlaridan ajratib olishga va tozalashga xizmat qiladigan zamonaviy resurstejamkor va paxta

tolasining tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi qurilmalarni yaratish muammolari yetarli darajada o'rganilmaganligi aniqlandi.

2. Arrali jinlash mashinasining tola tozalash qismida qo'llanilgan qurilmaning texnik va texnologik parametrlarining ratsional qiymatlari va tolani tozalash vaqtida ularning tabiiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganishning resurstejamkor takomillashgan yo'llari mavjudligini ko'rsatdi.

3. Takomillashtirilgan arrali jinda tolalardan ajratilgan ulyuk, kalta tolalar, tola nuqsonlari va iflos aralashmalarni markazdan qochma kuch bilan kolosniklar yuzasidan sidirib tushirishi hisobiga tola tozalash samaradorligining ortishi nazariy tadqiqotlarda aniqlandi.

4. Regressiya koeffitsiyentlari ahamiyatligi Styudent mezoni asosida tekshirildi va asosiy omillarning turli qiymatlari uchun regressiya tenglamasiga muvofiq egri chiziqlarni sonli hisoblash amalga oshirildi. Arra va kolosniklar orasidagi masofaning 2 mm dan 6 mm gacha oshishi bilan birinchi egri chiziqda asosiy omillarning $X_2 = 2$ mm, $X_3 = 35^0$ minimal qiymatlari bilan tozalash samaradorligi 20,47 % dan 20,74 % gacha oshib borishi aniqlandi.

5. Tolani takomillashtirilgan quvur sirtidagi havo oqimi natijasida yuzaga keladigan tebranma harakati va bu orqali unga ta'sir qiladigan kuchlarning tozalash samaradorligini oshirishdagi ahamiyati aniqlandi.

6. Arrali jindan tola tozalagichga uzatish quvuriga to'rli yuza va harakatni o'zgartiruvchi 45^0 burchak ostida 10 mm balandlikdagi planka o'rnatilib, tola tarkibidagi mayda iflosliklarning ajralish imkoniyatiga erishildi.

7. Ishlab chiqarishdagi tola tozalagichdan keyingi tolaning nuqson va iflos aralashmalar miqdori 2,53 % ni, takomillashtirilgan arrali jin-tola-tozalagichdan keyin esa 2,32 % ni tashkil qilib, tola tarkibidagi nuqson va iflos aralashmalarning miqdori 1,07 martaga kamayganligi aniqlandi.

8. Takomillashtirilgan aeromexanik usulda tolaning iflosliklardan tozalash texnologiyasini joriy etish natijasida iqtisodiy samaradorlik 117 113,5 ming so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ЖУРАЕВ ЖАСУРБЕК БЕГМАТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АЭРОМЕХАНИЧЕСКОЙ ОЧИСТКИ
ВОЛОКНА ОТ ЗАГРЯЗНЕНИЙ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2025.4.PhD/Т6226.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Хакимов Шеркул Шергазиевич**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Матисмаилов Сайпила Лолашбаевич**
доктор технических наук, профессор

Элмонов Сирожиддин Мамадиярович
доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 21 мая 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Т.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, дом 5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 222 аудитория. Тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно – ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за № 295). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, дом 5. Тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 7 мая 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 295 от 7 мая 2026 года).


Х.Х.Камилова
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.т.н., профессор

С.Л.Матисмаилов
Заместитель председателя Научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировом масштабе объём продукции, изготавливаемой из хлопкового волокна, продолжает оставаться на достаточно высоком уровне. Такие страны, как Китай, Индия, Бразилия, США и Пакистан, являющиеся мировыми лидерами по производству хлопкового волокна, в целях сохранения своих позиций и авторитета проводят широкомасштабные исследования, направленные на повышение потребительских свойств выпускаемой продукции и обеспечение её соответствия конъюнктуре рынка. Это усиливает конкурентную среду на мировом рынке, повышает требования к качеству продукции и диктует необходимость внедрения передовых технологий. В этом контексте оснащение предприятий хлопковой промышленности современным высокопроизводительным оборудованием и инновационными разработками имеет важное значение для устойчивого развития отрасли.

В мировом масштабе в качестве основного этапа технологии первичной переработки хлопка особое значение имеют научные и практические исследования, направленные на совершенствование техники и технологии процесса отделения хлопкового волокна от семян (джинирования). В данном направлении, в частности, формируются основы повышения эффективности процесса джинирования хлопка, а также уделяется серьёзное внимание сохранению природных показателей продукции и снижению её себестоимости за счёт ускорения широкого внедрения в производство наукоёмкой, автоматизированной и ресурсосберегающей техники и технологий. Вместе с тем к числу ключевых факторов развития данной отрасли относится высокая потребность в создании компактных технологий, позволяющих в процессе отделения волокна от семян сохранять исходные природные показатели качества волокна и семян, снижать энергозатраты процесса, обеспечивать управляемость показателей продукции, а также разрабатывать конструкции, способные отделять загрязняющие примеси из состава волокна.

В нашей республике особое внимание уделяется ускоренному развитию производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки хлопкового сырья, повышению качественных показателей хлопковой продукции, выпускаемой для внутреннего и внешнего рынков, а также обеспечению её конкурентоспособности на основе модернизации хлопкоочистительной промышленности. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены задачи: «...обеспечить устойчивость национальной экономики и продолжить промышленную политику, направленную на увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, повысив объём производства промышленной продукции в 1,4 раза, ...развивать промышленную кооперацию между крупными отраслями промышленности и региональными предприятиями, увеличить объём производства продукции текстильной промышленности в 2 раза»¹. При выполнении данных задач

одной из важных проблем развития промышленности является разработка конструкции, обеспечивающей максимально возможную очистку волокна в процессе пильного отделения, а также создание эффективной технологии, обеспечивающей непрерывность процесса, и её внедрение в производство.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом Президента Республики Узбекистан от 10 января 2023 года № УП – 2 «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности и дальнейшему увеличению экспортного потенциала отрасли», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 21 января 2022 года № ПП – 53 «О мерах по стимулированию глубокой переработки и производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на текстильных и швейно-трикотажных предприятиях, а также стимулированию её экспорта», постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 марта 2019 года № 253 «О дополнительных мерах по организации деятельности предприятий хлопковой и текстильной промышленности в кластерах», а также другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках II приоритетного направления развития науки и технологий республики «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Совершенствованием и исследованием технологических машин для отделения хлопкового волокна от семян (джинирования) за рубежом занимались изобретатели и учёные, такие как Аслам С., Сумро Н., Алберсон Д.М., Хьюгс С.Е., и другие, проводившие исследования по разработке эффективных конструкций.

В нашей республике вклад в устранение негативного влияния на качество волокна в процессе джинирования и повышение эффективности очистки внесли Хакимов Ш.Ш., Максудов Э.Т., Мирошниченко Г.И., Лугачёв А.Е., Корабельников Р.В. и другие учёные.

